

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANIDA
QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY VA INTERFAOL METODLAR VA
KVILING USULINING AFZALLIKLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7752209>



ELSEVIER

Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna

Denov tadbirkorlikva pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi



FARS PUBLISHERS
Foundation of Advanced Research Scholar's
Received: 19-03-2023
Accepted: 20-03-2023
Published: 22-03-2023

Abstract:
Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar tobora ko'payib bormoqda, shu jumladan, ta'lim jarayonida va maktablarda olib borilayotgan burilishlar ham bunga misol bola oladi. Pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi va sifatligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Bu esa o'quv jarayonida qo'llanilayotgan innovatsiyalarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini va dars rejasini loyihalashdir. Texnologiya fanidan darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishini, ta'lim mazmuniga oid o'rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo'lgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik o'rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqli muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya fanini o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilarga juda ko'p va qimmat bo'lgan o'quv qurollari emas, zarur ish asboblari va balki yaroqsiz yoki bir martalik plastmassa va yog'och buyumlar kerak bo'ladi. Bularga quyidagi buyumlar kiradi: qaychi, qog'oz, yelim, rangli qog'oz, qalamlar, chizg'ich, rangli bo'yoq, karton qog'oz, muzqaymoq cho'plari, bo'shagan qutilar, shablonlar. Ushbu buyumlardan zamonaviy metodlar orqali

ajoyib “ san’at kashfiyot”larini ustozlar bolalarga o’rgatishadi , ular nafaqat o’rgatibgina qolmay uning sir -asrorlarini qayerida tog’ri va qayerida noto’g’ri bajarganliklarini nazorat qiladi. Bu esa ularning bosh miya o’ng va chap yarim sharlarini ham dam olishiga ham tanqidiy fikrlashiga yordam beradi. Ushbu jarayonda zehni o’tkir bolalarda yasalayotgan buyumning boshqa eskizi yoki nusxasini- yana bir yangi maketi ularning hayolida kashf qilinishi mumkin . Agarda shunday holat kuzatiladigan bo’lsa garchi kamchiliklari bo’lsa-da, o’qituvchi unga motivatsiya berib xatolarini tuzatib unga ishonch bildirsa, keying safar o’sha aqlli bolalardan undanda zukko “ixtiro”lar chiqishi mumkin. Ya’ni bu bilan biz nima demoqchimiz, hozirgi zamonaviy texnologik jarayonda o’qituvchidan faqatgina bilim emas balki, professional pedagogik mahorat va psixologik yondashuv talab etiladi.

Texnologik davr rivojlanib borgani sari texnologiya fani metodlari ham ancha takomillashdi. Masalan, boshlang’ich sinflar texnologiya fanida- kviling, mozayka, applikatsiya, bog’lam, papye-mashe usullaridan foydalanib, raketa, maket, yovvoyi hayvon, uy, sabzavot, kompozitsiya, ertak qahramonlari va hokazolarni yasash mumkin.

Texnologiya fani darsligida milliy hunarmandchiligimizdan voz kechmagan holda milliy buyumlar va qo’g’irchoqlar yasash mavzulari ham joy olgan bo’lib bu bolalarni o’zbek hunarmandchilik san’ati bilan tanishtirishda katta xizmat qiladi.

Bunga misol qilib 3 sinf darsligida “Turli qalinlikdagi iplardan o’yinchoqlar yasash” mavzusini tahlil qiladigan bo’lsak, darsda avvalo kerakli jihozlar va asbob anjomlar (ip, karton, qaychi, har xil iplar, televizor, noutbuk, videoproyektor) shayligi tekshirilib olingach, iplar orqali ularni bog’lam qilib, avval bosh so’ng tana, qo’l va oyoqlari yasab qo’g’irchoq hosil qilinishi juda sodda tushuntirilgan. Bu darsda bog’lam orqali nafaqat milliy qahramonlar balki fantastik qahramonlarni yasash mumkin. Qaychidan foydalanilganda ehtiyot choralari yana bir marta o’qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Papye-mashe usulida keraksiz qog’oz va ozgina xamirni birgalikda ezg’ilab, tayyor massadan istalgan sabzavot, o’yinchoq yoki ertak qahramonini yasashlari mumkin.

Qolaversa, kviling (qog’oz filigri - inglizchadan olingan bo’lib, “qush pati” degan ma’noni beradi) usuli yordamida tabriknoma yasash darsi ham kiritilgan bo’lib, unda o’quvchilar uzun qog’oz bo’laklari va qirqimlarini spiralsimon aylantirishidan turli xil hajmdagi narsalarni yasashi mumkin. Ushbu san’atdan tarixda ilk marta rohiba va zodagon ayollar Yevropada qo’llashgan bo’lsa, endilikda bu san’atdan bolalar va hatto yoshi katta insonlar ham foydalanishmoqda ekan. Chunki kviling o’ng miya yarim sharining rivojlanishi uchun foydali. Ya’ni u ijodiy qobiliyatni, tasavvurni, go’zallik tuyg’usini mukammal

rivojlantiradi. U bolalarda estetik didni ham takomillashtiradi. Bu san'at orqali bolalarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash ham mumkin. Biz bilamizki, miya yarim sharlari nozik motorli ko'nikmalar nutq bilan bevosita bog'liqdir. Qo'llarning kichik qismlar bilan doimiy ishlashi barmoqlarni yanada egiluvchan, harakatlarni aniqroq qilishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida bolada yaratuvchanlik ya'ni kreativlik qobiliyatini va tanqidiy fikrlashni oshiradi. Bola biror bir qaror qabul qilishdan avval sabrli va qat'iyatli bo'lishida uni avvalo mehnatga muhabbat bilan o'stirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun uni muammoli vaziyatlarda to'g'ri to'xtamga kelishida va aqliy rivojlanishini kuchaytiruvchi mashg'ulotlarda masalan, kvilingning o'rni beqiyos. Olimlarning aniqlashicha, kviling bilan shug'ullangan bolalarda asab bilan bog'liq muammolar juda kam uchralar ekan. Shuningdek, bunday bolalar juda sokinlikni va san'atni sevuvchi insonlar bo'lib voyaga yetishar ekan. Yana bir ma'lumotga ko'ra, kviling bolaning ko'rish qobiliyatini ravshan qilib, diqqatini oshirar ekan. Bundan kelib chiqib, biz bemalol kviling bola rivojlanishida ham aqliy ham jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishida katta yordam beradi deb ayta olamiz.

Kviling usulida bolalarga turli xil geometrik shakllardan tashqari, gul, naqsh va tana a'zolarini yasashni o'rgatish mumkin. Buning uchun bizga yupqa va ingichka qog'oz bo'laklari, qog'ozni bir xil o'ramda aylantirish uchun uchli bigizsimon kviling aylantirgich yoki tish kovlagich (ba'zan ruchka pastasi ham kifoya qiladi), qaychi va kviling doskasi, yelim va didga ko'ra bezak va naqshlar kerak bo'ladi.

Hozirda texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda san'at ham takomillashib bormoqda. Kviling san'ati bir vaqtlar faqat ayollarning vaqtini unumli sarflashda sevimli mashg'ulot bo'lgan bo'lsa, XX asrda u devoriy rasmlar, rasmlar chetida, ramkalar va shakllarda hamda soatlarda namoyon bo'la boshlagan edi. Internet va axborot asriga kelib kvilingni biz ayollar sumkalarida, taqinchoqlarida, gerbariy, tabriknomalarda, aksessuarlarda, sun'iy gullar yasashda va hattoki zamonaviy me'morchilik uslublarida va 3d dizaynlarida ham uchratayapmiz. Koreyada mavjud kviling san'ati Yevropanikidan bir muncha farq qilib, ularda asosan "handmade(ya'ni faqat qo'ldan yasalgan)" kviling ishlari yaratiladi va ular faqat hajmli bo'ladi. Chet elda ya'ni Yevropa, Osiyo Amerika qit'asi davlatlarida hatto kvilingga bag'ishlangan ko'rgazmalar bo'lib o'tadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ham kviling san'ati ancha yuksalib bormoqda. Yurtimizda ushbu san'at orqali o'z hunarmandchilik va biznes ishini yo'lga qo'yayotgan yoshlarimiz ko'paymoqda. Chunki kviling usulidan yasalgan turli xil san'at asarlari juda go'zal, nafis va qimmat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.Sanakulov. F.Nasrullayeva. N.Aloviddinova. Texnologiya. Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent . Yangi nashr 2022.
2. Z.Umrzaqova . Texnologiya darslarini tashkil etishda foydalaniladigan shakllar. Urokov.ru.
3. O. Muxidova . Texnologiya fanlarini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash.Buxoro davlat universiteti. Cyberleninka.ru.
4. www. mommyinme.com. "How qulling will change your imagination?"